


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan
(birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan
(birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Hududlar kesimida


Qarshi sh	5932
Qarshi	2206
Kitob	2038
Koson	2014
Yakkabog'	2002
Qamashi	1797
Shahrisabz sh	1695
Chiroqchi	1593
Shahrisabz	1566
Nishon	1443
G'uzor	1426
Kasbi	1327
Ko'kdala	1256
Dehqonobod	1196
Mirishkor	1060
Muborak	983

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- oktabr holatiga 29 534 tani tashkil etdi, ulardan 24 329 tasi tadbirkorlik subyektlari. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,4 foiz, sanoat – 9,7 foiz, qurilish – 6,7 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,1 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,5 foiz, Kitob – 6,9 foiz, Koson – 6,8 foiz va Yakkabog' da – 6,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida

Qarshi sh	702
Ko'kdala	400
Qarshi	342
Yakkabog'	292
Koson	269
G'uzor	238
Shahrisabz sh	230
Kitob	219
Chiroqchi	209
Nishon	208
Qamashi	192
Shahrisabz	175
Kasbi	174
Mirishkor	156
Dehqonobod	155
Muborak	126


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2025- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 087 tani tashkil etdi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda savdo – 1 361 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 831 ta, sanoat – 464 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 310 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 291 ta, qurilish – 170 ta, tashish va saqlash – 91 ta, axborot va aloqa – 81 ta, boshqa turlar – 488 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- oktabr holatiga 24 329 tani tashkil etdi, ulardan 24 149 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,3 foiz, sanoat – 11,8 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 10,1 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	5 027	Shahrisabz	1 244
Qarshi	1 874	Nishon	1 201
Kitob	1 655	G'uzor	1 147
Yakkabog'	1 652	Kasbi	1 094
Koson	1 639	Ko'kdala	1 018
Qamashi	1 478	Dehqonobod	922
Shahrisabz sh	1 454	Mirishkor	849
Chiroqchi	1 262	Muborak	813


Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 709 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 698 ta;
- yirik korxonalar 11 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	668	13,3 %
Ko'kdala	382	37,5 %
Qarshi	305	16,3 %
Yakkabog'	271	16,4 %
Koson	239	14,6 %
Shahrisabz sh	221	15,2 %
G'uzor	214	18,7 %
Chiroqchi	187	14,8 %


Nishon	180	15,0 %
Kitob	176	10,6 %
Qamashi	175	11,8 %
Shahrisabz	154	12,4 %
Kasbi	150	13,7 %
Mirishkor	144	17,0 %
Dehqonobod	131	14,2 %
Muborak	112	13,8 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (20,5 foiz), Qarshi (7,7 foiz), Kitob (6,8 foiz), Yakkabog' (6,8 foiz), Koson (6,7 foiz) va Qamashi (6,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	4 953	Shahrisabz	1 239
Qarshi	1 861	Nishon	1 197
Kitob	1 648	G'uzor	1 135
Yakkabog'	1 646	Kasbi	1 090
Koson	1 625	Ko'kdala	1 016
Qamashi	1 474	Dehqonobod	917
Shahrisabz sh	1 446	Mirishkor	847
Chiroqchi	1 256	Muborak	799


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	661	13,3 %
Ko'kdala	382	37,6 %
Qarshi	305	16,4 %
Yakkabog'	270	16,4 %
Koson	239	14,7 %
Shahrisabz sh	221	15,3 %
G'uzor	214	18,9 %
Chiroqchi	186	14,8 %


Nishon	179	15,0 %
Kitob	176	10,7 %
Qamashi	174	11,8 %
Shahrisabz	154	12,4 %
Kasbi	150	13,8 %
Mirishkor	144	17,0 %
Dehqonobod	131	14,3 %
Muborak	112	14,0 %

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo'yicha ma'lumot


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qamashi	496
Nishon	431
Kasbi	368
Yakkabog'	345
Ko'kdala	342
Mirishkor	302
Qarshi	290
Koson	289
Shahrisabz	282
Kitob	250
Dehqonobod	232
Muborak	152
G'uzor	148
Chiroqchi	144
Qarshi sh	128
Shahrisabz sh	44



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekti hisoblanadi. Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (11,7 foiz), Nishon (10,2 foiz) va Kasbi (8,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

2025- yil 1- oktabr holatiga koʻra, birlikda


Hududlar kesimida

Qarshi sh	540
Kitob	343
Yakkabogʻ	258
Shahrisabz sh	236
Shahrisabz	231
Qarshi	186
Gʻuzor	161
Koson	157
Chiroqchi	145
Qamashi	117
Koʻkdala	103
Kasbi	100
Nishon	85
Muborak	81
Mirishkor	67
Dehqonobod	57



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega boʻlgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 9,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shundan – 88,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 9,0 foizini togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,8 foizini suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish va 1,1 foizini elektr, gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	596
Qarshi	226
Koson	182
Shahrisabz sh	109
Yakkabog'	106
Chiroqchi	102
Muborak	90
Kasbi	82
Shahrisabz	78
Qamashi	77
Kitob	77
Nishon	62
G'uzor	60
Ko'kdala	53
Dehqonobod	46
Mirishkor	43



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,1 foiz ulushni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,9 foiz ulushni tashkil etdi. - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 23,0 foiz ulushni tashkil etdi;




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	1 999
Qarshi	723
Koson	714
Chiroqchi	611
Shahrisabz sh	572
Kitob	570
Yakkabog'	564
G'uzor	528
Qamashi	498
Dehqonobod	410
Nishon	409
Kasbi	385
Shahrisabz	382
Ko'kdala	371
Muborak	329
Mirishkor	311



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 9 336 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 67,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 23,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,4 foiz ulushni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	414
Kitob	159
Shahrisabz sh	150
Yakkabog'	132
Shahrisabz	124
Qarshi	97
Chiroqchi	82
Qamashi	80
G'uzor	75
Dehqonobod	59
Nishon	56
Ko'kdala	53
Koson	52
Muborak	41
Kasbi	30
Mirishkor	28



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- oktabr holatiga 1 632 taga yetib, ularning 1 616 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,9 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,1 foiz ulushini tashkil etdi.




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Qarshi sh	149
Chiroqchi	41
Qarshi	38
G'uzor	23
Shahrisabz sh	22
Koson	20
Kitob	19
Yakkabog'	17
Kasbi	16
Nishon	12
Dehqonobod	9
Qamashi	8
Ko'kdala	8
Shahrisabz	6
Mirishkor	3
Muborak	3



2025-yil 1- oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 67,8 foizini;

Axborot xizmatlari va nashirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,4 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,8 foizni tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	244
Kitob	107
Yakkabog'	92
Shahrisabz sh	78
Koson	69
Qarshi	64
Shahrisabz	53
G'uzor	49
Qamashi	48
Chiroqchi	45
Nishon	39
Kasbi	35
Dehqonobod	31
Muborak	31
Mirishkor	27
Ko'kdala	19



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 670 ta yoki 65,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 95,2 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar sonining 1,9 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,9 foizini tashkil etdi.




Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	256
Qarshi	86
Shahrisabz sh	55
Yakkabog'	47
Kitob	46
G'uzor	40
Koson	39
Shahrisabz	38
Mirishkor	37
Kasbi	33
Dehqonobod	17
Qamashi	17
Chiroqchi	17
Nishon	15
Ko'kdala	14
Muborak	13



2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 79,5 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 17,1 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni;
- havo transporti yo'nalishida korxonalar soni 0,2 foizni tashkil etgan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yetakchi o'rinni 42 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,6 foiz), Turkiya (ulushi 12,1 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,1 foiz) va Qozog'iston (ulushi 3,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	37	Kasbi	7
Muborak	18	Chiroqchi	7
Nishon	13	Shahrisabz	7
Qarshi	11	Dehqonobod	6
Koson	10	Qamashi	5
G'uzor	9	Yakkabog'	5
Kitob	8	Ko'kdala	3
Mirishkor	8	Shahrisabz sh	3

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 78 tasi qo'shma korxonalar, 79 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
6	G'uzor	3
3	Dehqonobod	3
2	Qamashi	3
5	Qarshi	6
6	Koson	4
2	Kitob	6
4	Mirishkor	4
5	Muborak	13
4	Nishon	9
1	Kasbi	6
1	Ko'kdala	2
7	Chiroqchi	0
5	Shahrisabz	2
3	Yakkabog'	2
23	Qarshi sh.	14
1	Shahrisabz sh.	2

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.